



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

mukammalligi ota yoki ona mehri, tarbiyasi, doimiy nazorati hamda oilaviy qadriyatlarni yuz yilliklar sinovidan o'tgan milliy qadriyatlar zahirida yo'lga qo'yib, muvofiqlashtirib borishi bilan bog'liq.

Yoshlar faoliyatining pozitiv mohiyatini ta'minlashda qonun ustuvorligi, moddiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning mavjudligi, radikalizm, ekstremizm va terrorizm tahdididan yoshlarni himoya qila olish, kambag'allikni qisqartirib, o'rta mulkdorlar qatlamining o'sishini ta'minlab borish, ekotizim va sog'likni saqlash sohasidagi tahdidlardan himoyalash kabi masalalarni o'z tarkibiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Назарова Қ. Маънавият: асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – Б. 199.
2. Назарова Қ. Маънавият: асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – Б. 198.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Том 4. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б. 143.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 203.
5. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси – Б. 203.

MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.

Ibrogimova Gulbahor

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti, "Ijtimoiy-gumanitar
fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

E-mail: gulbahoribragimova@gmail.com

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/LARI7640

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy tanlovning ijtimoiy mohiyati keng muhokamalar orqali yoritiladi. Ma'naviy tanlov insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini ochib beruvchi eng muhim falsafiy-axloqiy kategoriya bo'lib, u shaxsning qadriyatlar tizimi bilan o'zaro aloqasida shakllanadi. Insonning ma'naviy tanlovi ijtimoiy ong, madaniy me'yor va axloqiy qadriyatlar bilan

uyg'unlikda kechadi, shu bois u faqat individual ong mahsuli emas, balki ijtimoiy jarayonning ifodasi ekanligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Ma'naviy tanlov, jamiyat, davlat, ijtimoiy ma'suliyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy ong, madaniy meros, fenomen, ijtimoiy mavjudot.*

Abstract: This article sheds light on the social nature of spiritual choice through extensive discussions. Spiritual choice is the most important philosophical and moral category that reveals the essence of a person as a social being, and it is formed in the interaction with the value system of the individual. The spiritual choice of a person takes place in harmony with social consciousness, cultural norms and moral values, therefore it is considered that it is not only a product of individual consciousness, but also an expression of a social process.

Keywords: *Spiritual choice, society, state, social responsibility, moral values, social consciousness, cultural heritage, phenomenon, social being.*

Sharq xalqlarining muhim qadriyatlari hisoblangan yaxshilik, hojatbarorlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, halollik, poklik va boshqalar sog'lom va avlod tarbiyasining eng oddiy usuli savol-javob, pand-nasihat, ibrat shaklida xalq o'rtasida targ'ib qilingan. Ma'naviy tanlovning ijtimoiy mohiyati shundaki, u shaxsiy qaror emas, balki ijtimoiy qadriyatlarning aks-sadosi, ijtimoiy mas'uliyatning timsolidir. Shu jihatdan, bu fenomenni tahlil etish nafaqat individual axloqiylik, balki ijtimoiy birlik va barqarorlikning falsafiy negizlarini ochib beradi.

O'zbekiston falsafiy tafakkurida M. Yunusov "ma'naviy tanlov – bu insonning jamiyatdagi axloqiy mas'uliyatini ixtiyoriy anglash jarayoni" deb ta'riflaydi (Yunusov M., Inson va ijtimoiy ongning ma'naviy shakllari, Toshkent: Ma'naviyat, 2018, b. 59). Olimning fikricha, shaxsning ma'naviy tanlovi ijtimoiy qadriyatlarni faqat tashqi buyruq sifatida emas, balki ichki e'tiqod shaklida qabul qilganida haqiqiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ma'naviy tarbiya insonda qadriyatlarni "singdirish" emas, balki "ichkilashtirish" (internalizatsiya) jarayoniga asoslanishi lozim.

Ma'naviy tanlov insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini ochib beruvchi eng muhim falsafiy-axloqiy kategoriya bo'lib, u shaxsning qadriyatlar tizimi bilan o'zaro aloqasida shakllanadi. Insonning ma'naviy tanlovi ijtimoiy ong, madaniy me'yor va axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlikda kechadi, shu bois u faqat individual

ong mahsuli emas, balki ijtimoiy jarayonning ifodasidir. Ma'naviy tanlov orqali inson o'zining jamiyatdagi o'rnini, mas'uliyatini va maqsadini aniqlaydi; demakki, bu fenomen ijtimoiy tuzumning axloqiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

A. Sen ma'naviy tanlovni ijtimoiy adolat bilan bog'laydi. U "axloqiy qaror bu iqtisodiy va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'lida insonning ongli harakatidir" deb ta'kidlaydi (Sen A., *The Idea of Justice*, Cambridge: Harvard University Press, 2009, p. 27). Senning yondashuvi ijtimoiy tanlovni faqat axloqiy emas, balki normativ va amaliy masala sifatida ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, ma'naviy tarbiya jarayonida insonni nafaqat vijdoniy, balki ijtimoiy faol sub'ekt sifatida shakllantirish zarurligini ifodalaydi.

M. Scheler esa ijtimoiy qadriyatlar ierarxiasini tahlil qilib, "ma'naviy tanlov – bu insonning oliy qadriyatlarga yo'nalgan ongiy harakati bo'lib, u jamiyatda axloqiy uyg'unlikni ta'minlaydi" deb yozadi (Scheler M., *Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik*, Halle: Niemeyer, 1916, S. 148). Schelerning bu qarashi ma'naviy tarbiya nazariyasi uchun g'oyat muhim, chunki u axloqiy qarorlarni ijtimoiy qadriyatlarning hierarxik tizimi bilan uyg'unlikda shakllantirish zaruratini asoslaydi.

E. Durkheim ma'naviy tanlovni jamiyatning axloqiy tuzilmasi bilan bog'lab, "axloqiylik – bu ijtimoiy fakt, insonning xulq-atvori esa ijtimoiy me'yorlar bilan boshqariladi" deb yozadi (Durkheim É., *De la division du travail social*, Paris: Alcan, 1893, p. 241). Unga ko'ra, har bir shaxsning ma'naviy qarori ijtimoiy tartibning bir bo'lagidir, chunki tanlov orqali inson ijtimoiy me'yorlarni tasdiqlaydi yoki ularga qarshi chiqadi. Biroq, tanqidiy yondashuvda Durkheimning konsepsiyasi insonning individual vijdonini jamiyat foydasiga haddan ortiq bo'ysundirish xavfini tug'diradi. Ma'naviy tarbiya jarayonida esa aynan shu muvozanat — ya'ni ijtimoiy me'yorlarga hurmat bilan birga, shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarur.

Mahalliy falsafiy tafakkurda S. To'xtayev ma'naviy tanlovni "shaxsning ijtimoiy burch va vijdon o'rtasidagi uyg'unlikni topish qobiliyati" sifatida talqin qiladi (To'xtayev S., *Inson ma'naviyatining ijtimoiy falsafasi*, Toshkent: O'zbekiston, 2017, b. 83). Olimning fikricha, ma'naviy tarbiya jarayoni shaxsda ijtimoiy burchni anglash

bilan birga, ichki axloqiy mezonlarni mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi. Shu tarzda, inson tanlov qilayotganda nafaqat jamiyatning talablariga, balki o'z vijdonining ovozigam ham quloq soladi.

Ma'naviy tanlov insonning ijtimoiy mavjudlikdagi faoliyati, mas'uliyat hissi va qadriyatlar tizimidagi o'rnini belgilovchi eng muhim falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsning axloqiy qarorlarini ijtimoiy muhit, madaniy an'analar va qadriyatlar tizimi bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshiradi. Insonning har bir tanlovi, aslida, jamiyatning ma'naviy holatini va uning axloqiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Shu boisdan, ma'naviy tanlovning ijtimoiy mohiyatini tushunish — bu shaxs va jamiyat o'rtasidagi ma'naviy bog'liqlikni anglash demakdir.

Mahalliy falsafiy tafakkurda A. Qodirov “ma'naviy tanlov – bu shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatini o'z zimmasiga olish, vijdon asosida qaror qabul qilish madaniyatidir” deya ta'riflaydi (Qodirov A., Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti, Toshkent: Ma'naviyat, 2020, b. 74). Unga ko'ra, insonning har bir tanlovi ijtimoiy muhitni o'zgartiruvchi kuchdir, chunki ma'naviy qarorlar jamiyatda axloqiy uyg'unlikni ta'minlaydi. Bu g'oya O'zbekiston sharoitida ma'naviy tarbiya konsepsiyasining falsafiy asosi bo'lib xizmat qiladi, chunki u ijtimoiy qadriyatlar barqarorligi va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi muvozanatni anglashga da'vat etadi.

A. Schopenhauer esa ma'naviy tanlovning asosini “irodaning axloqiy yo'nalishi” bilan bog'laydi. U “insonning haqiqiy axloqiy qarori — bu o'z manfaatini emas, balki butun insoniyat farovonligini tanlashdir” deb yozadi (Schopenhauer A., Über die Grundlage der Moral, Leipzig: Brockhaus, 1841, S. 67). Schopenhauerning yondashuvi ma'naviy tanlovning altruistik mohiyatini ochib beradi. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy tarbiyaning vazifasi insonda “o'zga uchun yashash” falsafasini shakllantirishdir.

Ma'naviy tanlov insonning ijtimoiy hayotdagi faol pozitsiyasini, uning qadriy dunyoqarashi va jamiyatdagi mas'uliyatini belgilovchi muhim falsafiy-axloqiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. U shaxsning ruhiy dunyosida vujudga kelgan qadriyatlar tizimi bilan ijtimoiy me'yorlar, madaniy an'analar va axloqiy talablar o'rtasidagi dialektik uyg'unlikni ifodalaydi. Ma'naviy tanlovda inson o'z vijdoni, ongiy idroki va ijtimoiy muhit bilan uzluksiz muloqotda bo'ladi. Shu jihatdan, bu fenomen shaxsni

jamiyatning ma'naviy barqarorligida faol sub'ekt sifatida talqin etadi, uning axloqiy qarorlari orqali ijtimoiy qadriyatlar tizimi yangilanadi va mustahkamlanadi.

T. Parsons ijtimoiy tizim nazariyasida ma'naviy tanlovni jamiyatning integratsion mexanizmi sifatida ko'rsatadi. U "axloqiy tizim jamiyatni birlashtiruvchi normativ tizim bo'lib, har bir shaxs o'z tanlovi orqali ijtimoiy tizimni qo'llab-quvvatlaydi yoki uni o'zgartiradi" deya yozadi (Parsons T., *The Social System*, Glencoe: Free Press, 1951, p. 237). Parsonsning bu fikri ma'naviy tanlovning ijtimoiy mohiyatini tizimli asosda yoritadi: har bir qaror — bu jamiyatning axloqiy muvozanatiga ta'sir qiluvchi hodisadir. Shu bois, ma'naviy tarbiya jarayonida insonni ijtimoiy muvozanat va umumiy qadriyatlarni saqlash ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy ilmiy tafakkurda O. To'laganova ma'naviy tanlovni "vijdon, burch va ijtimoiy mas'uliyatning birligi sifatida, shaxsning ijtimoiy hayotdagi faoliyatida namoyon bo'luvchi ichki ehtiyoj" deb izohlaydi (To'laganova O., *Axloqiy madaniyatning falsafiy asoslari*, Toshkent: Fan, 2020, b. 95). Olimaning fikricha, ma'naviy tanlovni shakllantirishda tarbiyaning roli beqiyos, chunki inson faqat tarbiya jarayonida o'z vijdoni va ijtimoiy burchini uyg'unlashtirishni o'rganadi. Bu fikr milliy falsafiy tafakkurning o'ziga xos jihati sifatida insonni jamiyatning ma'naviy asosi deb talqin etadi.

P. Sorokin esa ma'naviy tanlovni sotsiokultural evolyutsiyaning harakatlantiruvchi omili sifatida baholaydi. U "madaniyatning ichki o'zgarishlari insonning ma'naviy tanlovlariga bog'liq, axloqiy qadriyatlarning almashinuvi esa ijtimoiy tizimning yangilanish sharti" deb yozadi (Sorokin P., *Social and Cultural Dynamics*, New York: American Book Co., 1937, Vol. I, p. 116). Sorokin yondashuvida ma'naviy tanlov ijtimoiy qadriyatlar tizimining rivojlanish manbai sifatida qaraladi. Shu jihatdan, ma'naviy tarbiya jarayonida insonni qadriyatlarni takrorlash emas, balki ularni anglab yangilashga o'rgatish zarurligi ta'kidlanadi.

Ma'naviy tanlov ijtimoiy hayotda insonning o'z mohiyatini anglash, jamiyat qadriyatlari bilan o'zini uyg'unlashtirish va vijdoniy mas'uliyat asosida faoliyat yuritish jarayonining falsafiy asosi sifatida namoyon bo'ladi. Insonning har bir tanlovi

uning axloqiy va ma'naviy yetuklik darajasini, shuningdek, u yashayotgan jamiyatning ma'naviy muhitini belgilaydi. Shu bois ma'naviy tanlovning ijtimoiy mohiyati qadriyatlar tizimining markazida turib, insonni shunchaki ijtimoiy ob'ekt emas, balki ma'naviy sub'ekt sifatida namoyon etadi. Inson o'z tanlovi orqali ijtimoiy barqarorlikka, axloqiy uyg'unlikka va madaniy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yunusov M. Inson va ijtimoiy ongning ma'naviy shakllari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018. – B. 59.
2. Sen A. The Idea of Justice. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – P. 27.
3. Scheler M. Der Formalismus in der Ethik und die materiale Wertethik. – Halle: Niemeyer, 1916. – S. 148.
4. Durkheim É. De la division du travail social. – Paris: Alcan, 1893. – P. 241.
5. To'xtayev S. Inson ma'naviyatining ijtimoiy falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 83.
6. Qodirov A. Ma'naviyat va jamiyat taraqqiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 74.
7. Schopenhauer A. Über die Grundlage der Moral. – Leipzig: Brockhaus, 1841. – S. 67.
8. Parsons T. The Social System. – Glencoe: Free Press, 1951. – P. 237.

CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN CENTRAL ASIA

Shohjahon Ahadov

a lecturer and researcher at Uzbekistan

State World Languages University

Email: shohjahonahadov@gmail.com

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/UWFF6984

Abstract: China's Belt and Road Initiative (BRI) has become one of the most influential geopolitical and economic projects that influenced contemporary Central Asia. While governments in Kazakhstan, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Tajikistan, and Turkmenistan consider the BRI as an opportunity for large-scale infrastructure development, investment inflows, and enhanced regional connectivity, public reactions in those countries have been considerably more complex. This article examines the multidimensional impact of the BRI in Central Asia, with a specific focus on rising anti-Chinese sentiment, migration-related anxieties, and socio-political tensions. Drawing on academic literature, expert analyses, and survey evidence, this article aims to demonstrate that Chinese labor

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

